

# Xotin-qizlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash va bandligini ta'minlash - pirovard maqsad

// 24.09.2024

<https://uzkiyosanoat.uz/oz/press/about-us/xotin-qizlar-faoliyatini-qo'llab-quvvatlash-va-bandligini-ta>

**Халқ сўзи** online

Ўз | O'z | Py | En | العربية | Es | 中文 | Fr

Қидирув...

Google play

СИЁСАТ ХУЖЖАТЛАР ИҚТИСОДИЁТ ЖАМИЯТ ДУНЁ СПОРТ МАДАНИЯТ ИЛМ-ФАН WELCOME TO UZBEKISTAN

## Хотин-қизлар фаолиятини қўллаб-қувватлаш ва бандлигини таъминлаш — пировард мақсад

10:22 21 Сентябрь 2024 [Жамият](#)

187 0



Кейинги йилларда янги Ўзбекистонда жамият ҳаётининг барча жабҳасида улкан ижобий ўзгаришлар кўзга ташланмоқда. Айниқса, юртимизда аёллар фаолиятини қўллаб-қувватлашга алоҳида эътибор қаратилаётгани диққатга сазовордир. Турли вазирлик ва идоралар қаторида “Ўзкимёсаноат” акциядорлик жамияти жамоаси томонидан ҳам хотин-қизлар фаоллигини ошириш, аҳолининг ижтимоий ҳимояга муҳтож қатламига қўмаклашиш мақсадида салмоқли ишлар амалга оширилмоқда.

### Кўп ўқилганлар

Инновацион ишланмалар ва илғор технологиялар намойиши  
2732

Тошкентда Ўзбекистон ва Туркиянинг учта вазирлик ва идоралари раҳбарлари ўртасида учрашув ўтказилди  
2481

23 кун: Тошкентдаги айрим кўчаларда транспорт ҳаракати қисман чекланади  
2362

Инсоният янги рекордни қайд этди  
2214

Сурхондарёлик олимлар янги буюк турини яратишди  
2178

Амирнинг ушалмаган армони  
1571

**ОХИРГИ СОН**

«Халқ сўзи» газетаси

Keyingi yillarda yangi O'zbekistonda jamiyat hayotining barcha jabhasida ulkan ijobiy o'zgarishlar ko'zga tashlanmoqda. Ayniqsa, yurtimizda ayollar faoliyatini qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilayotgani diqqatga sazovordir. Turli vazirlik va idoralar qatorida “O'zkiyosanoat” aksiyadorlik jamiyati jamoasi tomonidan ham хотин-қизлар faolligini oshirish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamiga ko'maklashish maqsadida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz rahbarining 2022-yil 7-martdagi “Oila va хотин-қизlarni tizimli qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori bilan mamlakatimiz iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhasida хотин-қизlar faolligini oshirishga qaratilgan 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan milliy dastur qabul qilindi.

Hujjatda bir qator boshqarma va muassasalarda ayollar sonini kamida 30 foizga yetkazish, хотин-қизlarni o'qitish hamda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash uchun mablag' va uy-joy sharoitini yaxshilashga subsidiyalar ajratish singari bir qator vazifalar belgilab berildi.

Bugungi kunda "O'zkimyosanoat" AJ tarmoq korxonalarida 28 ming 301 nafar mutaxassis faoliyat yuritadi, shulardan 9 ming 883 nafari, ya'ni 35 foizi ayollardir.

Ta'kidlash joizki, aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi raisi tashabbusi bilan davlatimiz rahbarining yuqorida qayd etilgan qarori ijrosini ta'minlash maqsadida tizim korxonalarida xotin-qizlar masalalari bo'yicha maslahatchi lavozimini joriy etish belgilandi.

Maslahatchilarning vazifalari qatoriga ayol xodimlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ayollar hamda erkaklar uchun teng mehnat sharoitlarini ta'minlash, shuningdek, jamoa a'zolarining oilalari farovonligini qo'llab-quvvatlash kabi muhim tadbirlar kiradi. Oilada zo'ravonlik, ayollar hamda qizlarning huquqlarini poymol qilish holatlarining oldini olish, maktabgacha ta'lim muassasalarida baxtli onalik va bola parvarishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlash, xalqaro konvensiyalar va O'zbekiston milliy qonunchiligi me'yorlarida belgilangan xotin-qizlar huquqlariga rioya etish jarayonlarini muntazam nazorat qilib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, ayollarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy faolligi, davlat va jamiyat boshqaruvidagi, onalik hamda bolalikni muhofaza qilishdagi rolini oshirish uchun shart-sharoit yaratilmoqda. Xodimlarimizning kasbiy o'sishi, ilm-fan va ijod, jismoniy tarbiya hamda sport bilan shug'ullanishi, madaniy hordiq chiqarishi uchun imkoniyatlar mavjud.

Uning ijrosi doirasida aksiyadorlik jamiyatining to'rt nafar xodimi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabida "Korporativ boshqaruvning zamonaviy amaliyoti va tamoyillari" bo'yicha qisqa muddatli kursda tahsil olib sertifikatlarga ega bo'ldi. Va bu bilan Kuzatuv kengashi tarkibiga kirish huquqini qo'lga kiritdi.

Ayonki, bugungi kunda ayollar bandligini ta'minlash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Shu bois "O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati tomonidan xotin-qizlar bandligini ta'minlash borasida xayrli tashabbuslar amalga oshirilayotir. Xususan, davlatimiz rahbarining tegishli qarori ijrosi yuzasidan ipakchilik yo'nalishi bo'yicha kimyo sanoati korxonalari xodimlarining oila a'zolari uchun qo'shimcha ish o'rinlari yaratildi. Shu bilan birga, har bir korxonada yuqoridagi muammolarni hal qilishda o'ziga xos yondashuvlar qo'llanildi.

Masalan, "Navoiyazot" aksiyadorlik jamiyati tomonidan xodimlarning ihsiz oila a'zolari ro'yxati shakllantirildi. Karmana tumanidagi "Navoiy Silk Production" aksiyadorlik jamiyati, Navbahor tumanidagi "Al-Aziz Ipagi" klasteri bilan 100 nafar pillakorning hamkorligi asosida 112 nafar ipakchining bandligini ta'minlash maqsadida mehnat shartnomalari imzolandi. Jami 212 nafar avval ihsiz bo'lgan fuqarolar mavsumiy ish bilan ta'minlandi. Natijada pillachilar 10200 kilogramm pilla topshirdi. Shuningdek, "Navoiyazot" aksiyadorlik jamiyatiga qarashli bo'sh hududlarga 20 ming tup tut ko'chati ekildi.

Yana bir tizim korxonasi — "Ammofos-Maksam" aksiyadorlik jamiyati bilan 125 kishini mavsumiy ishga joylashtirish bo'yicha shartnomalar tuzildi. Toshkent viloyatining Bo'ka tumanida "Toshkent Silk Pro" MCHJ bilan 65 nafar, Ohangaron tumanida "Jinju Silk Co" MCHJ XK bilan 60 nafar fuqaro ishga joylashtirildi. Pillachilar sakkiz tonnadan ziyod pilla topshirib, korxonada hududiga 20 ming tup ko'chat ekildi.

"Maksam-Chirchiq" aksiyadorlik jamiyati "Nurafshon Silk Co" MCHJ bilan shartnoma tuzib, yana 100 nafar fuqaroni vaqtincha ish bilan ta'minlash maqsadida ipak qurti yetkazib berishni tashkil etib, ularga 5900 kilogramm pilla, erkin maydonlarga ekilgan sakkiz ming tup ko'chat topshirildi. Shuningdek, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida "Maksam-Chirchiq" va "Ammofos-Maksam" aksiyadorlik jamiyatlari hududlarida "Kimyogar ayollar bog'i" barpo etildi.

Shuni ham ta'kidlash joizki, aksiyadorlik jamiyati rahbariyati tashabbusi bilan ishlab chiqilgan xotin-qizlar bandligini ta'minlashga ko'maklashish dasturi asosida "O'zkimyosanoat" va "Navoiyazot" aksiyadorlik jamiyatida milliy matolar — atlas, adras, beqasam, tabiiy ipak, kalava, jun va milliy matolarni qo'lda ishlab chiqarish bo'yicha hunarmand ayollarni jalb etadigan "Navoiy adrasi" kasanachilik sexi tashkil etilishi

rejalashtirilmoqda. Pirovard maqsad esa, xotin-qizlar bandligini ta'minlash, aholi farovonligini oshirishga qaratilgan.

**Sanobar ABDURAHMONOVA,**

**"O'zkiyosanoat" AJ boshqaruvi raisi maslahatchisi.**

**Manba: "Xalq so'zi online" - <https://xs.uz/uzkr/118981>**